

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANDLIK VA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.

Aslanov A.X.

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, stajyor o'qituvchisi, Buxoro sh.,
aslanovax77@gmail.com*

Toshpo'latov D.X.

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, stajyor o'qituvchisi, Buxoro sh.,
tdoniyor1297@gmail.com*

ВОПРОСЫ ЗАНЯТОСТИ И РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Асланов А.Х.

*Бухарский инженерно-технологический институт, преподаватель-стажёр, г.
Бухара, aslanovax77@gmail.com*

Тошпулатов Д.Х.

*Бухарский инженерно-технологический институт, преподаватель-стажёр, г.
Бухара, tdoniyor1297@gmail.com*

ISSUES OF EMPLOYMENT AND HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN THE DIGITAL ECONOMY.

Aslanov A.Kh.

*Bukhara Institute of Engineering and Technology, Trainee teacher, Bukhara,
Toshpulatov D.Kh.*

Bukhara Institute of Engineering and Technology, Trainee teacher, Bukhara

Axborot kommunikatsiyaning rivojlanib borishi, xorij tajribalarining yurtimizga kirib kelishi juda ko'p sohalarda o'zining yangi bosqichini boshlashiga olib keldi. Shu asnoda raqamli iqtisodiyot tushunchasi ham shakllanib bormoqda va unda inson kapitalining ahamiyati o'r ganilmoqda.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakat va insoniyat uchun afzal taraflari nihoyatga talaygina. [1]. Vaholanki, axborot-kommunikatsion sohalarini rivojlanishi inson resurslari ichida eng qimmat bo'lgan vaqtimizni anchagina tejashimiz, undan samarali va oqilona foydalanishimizga keng imkon yaratmoqda. Agar biz biron bir kitobning qog'ozga nashr qilingan nusxasi o'rniga elektron formatini sotib olsak, sarf qilayotgan vaqtimizdan samarali foydalangan bo'lamic. Axborot kommunikatsion texnologiyalarini rivojlanishi orqali nafaqat vaqtimiz va hatto mablag'imizni ham tejab qolgan bo'lamic. [2]

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, „Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. [1]. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi“ Raqamli iqtisodiyot — bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshirish tizimidir. [3]. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. [4]. 1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte „raqamli iqtisodiyot“ terminini amaliyatga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar — deyarli barcha qo‘llamoqda. 2016-yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma’ruza e’lon qildi [1] („Raqamli dividendlar“).

Raqamli iqtisodiyot hozirgi kunga kelib dolzarb mavzulardan biriga aylandi. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi bиринчи bo’lib 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan. [5] “Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intelekt asrida va’da xavf- xatar” (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan.[6] Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo’tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog’lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko’rsatiladi. [7]. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Juhon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O’zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmsandan erishib bo’lmaydi. [8]. Xalqaro tajribalar shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. [9] Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalarni qo’llab - quvvatlagan holda qulay ekotizmni yaratishi kerak. Click, Payme, Mbark, Upay, Oson va boshqa onlayn to’lovlarga imkon beruvchi to’lov tizimlari mavjud bo’lishiga qaramay mobil to’lovlari, internet, kommunal to’lovlari uchun onlayn to’lovlarni amalga oshirish ko’rsatkichi yuqori emas. [10] 2017-yilda 34 % hisob egalari raqamli to’lovni amalga oshirgan. Solishtirish uchun bu ko’rsatkich Buyuk Britaniyada 96 % ga teng. Bizda shu sohani rivojlantrib elektron tijoratni, elektron o’tkazmalarni rivojlanishimiz zarur. Raqamli to’lov O’zbekistonda 34 % ni tashkil etayotgan bo’lsa, biz bu ko’rsatkichni 100 % ga chiqarish zarur.[11]

Dunyo mamlakatlari singari O’zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanib bormoqda. Kundalik hayotimizga axborot-texnologiyalarini tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko’plab imkoniyatlar yaratilmoqda. [12] Lekin shuni ham ta’kidlab o’tish joizki, O’zbekistonda raqamli iqtisodiyot bir necha barobar sekin rivojlanmoqda. [13]. Ya’ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud, lekin rivojlanish darajasi boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha past.

Buning asosiy sababi sifatida, raqamli iqtisodiyotni O’zbekistonda rivojlanishini bir qancha to’siqlarini ko’rsatishimiz mumkin:

-internet tezligining pastligi va sifatsizligi;

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

- ko'plab sohalardagi monopoliya;
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining pastligi;
- qonunchilikning shaffof emasligi;
- axborot-texnologiyalari bo'yicha mutaxasisning yetishmasligi;
- ilm-fan va ayniqsa aniq fanlar rivojlanishining sustligi.

Xulosa qilib aytganda, biz yuqorida sanab o'tgan muammolarga bosqichma-bosqich dunyo tajribasidan kelib chiqqan holda yechim topsak, albatta O'zbekiston ham raqamli iqtisodiyoti rivojlanigan mamlakatlar qatoridan joy oladi. [14]

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi qulayliklar bilan birga ba'zi sohalarning ish o'rinalarini kamayishiga olib kelmoqda. [15]. Sababi bank sohalarida juda ko'plab xizmatlarning onlayn amalga oshirilishi ish o'rinaliga ehtiyojni birmuncha pasaytirgan. Bu sohaning rivojlanishida inson omili kamaymoqda. [16] Albatta bundan ko'zlangan maqsad korrupsiya, tanish-bilishchilikning oldini olishdir. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va "qora iqtisodiyot"ning asosiy kushandasidir. [17]. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerakli paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. [18] Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. [19]. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliligi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Prezidentining 2020 iyul 5 oktyabr "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi Respublikasini boshqarish va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079-son Farmoni.
2. Gulyamov S.S. va boshqalar Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. T, 2019 yil. 409 sahifalar.
3. Karomatovna M. J. WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – T. 3. – №. 2. View of WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS (sciencesage.info)
4. Musayeva J. K. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O 'RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 554-564.
5. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. – 2023. – T. 8. – №. 5. View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View

RAQAMLI IKTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

6. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 618-628. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615> DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>
7. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 283.
8. Мусаева Ж. К. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА ТАЪЛИМДА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
9. Мусаева Ж. К. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 288.
10. Karomatovna M. J. MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC GLOBALIZATION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 1434-1441.
11. Karomatovna M. J. Economic thoughts in the works of alisher navoi and their role in the development of society //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 1524-1531.
12. Мусаева Ж. К. Роль цифровой трансформации в развитии экономики Узбекистана. – 2021.
13. Мусаева Ж. К., Шарипова М. М. Информационная безопасность–важное условие цифровой экономики. – 2021.
14. Мусаева Ж. К. Тенденции развития цифровой экономики и образования в Узбекистане //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 246-250.
15. Мусаева Ж. К., Шарипова М. М. INFORMATION SECURITY IS AN IMPORTANT CONDITION FOR THE DIGITAL ECONOMY //Тенденции экономического развития в XXI веке. – 2021. – С. 323-326.
16. Khalilova, M. N., and Pulotov Sh Sh. "Actuality of Public Finance Management System in The Republic of Uzbekistan: Main Directions, Stages, Prospects for Improvement." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.3 (2023): 1-3.
17. Shavkatovich P. S., Narzullayevna B. S., Rasulovna K. G. INCREASING THE INVESTMENT ACTIVITY OF PRODUCTION ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF THE DIGITAL ECONOMY //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 15. – С. 31-34.
18. Пулатов Ш. Ш., Хайитова И. Н. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СПОСОБОВ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

УЗБЕКИСТАНА //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2022. – С. 405-408.

19. Артикова Д. М., Пулатов Ш. Ш. ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИИ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030» //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 347-350.